

ANIMATSION DISKURSDAGI YUMORISTIK BIRLIKLARNI O'GIRISHDA TARJIMA
TRANSFORMATSIYALARI VA ADAPTATSIYA STRATEGIYALARI**Jumanazarova Zarina Rashid qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

zarinajumanazarova@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20384410>

Annotatsiya. Mazkur maqolada animatsion diskurs tarkibidagi yumoristik birliklarni tarjima qilish jarayonida qo'llaniladigan tarjima transformatsiyalari hamda adaptatsiya strategiyalari tahlil qilinadi. Animatsion filmlar va multfilmlar tilida uchraydigan so'z o'yinlari, madaniy birliklar, kinoya, metafora va lingvokulturologik elementlarni tarjima qilishdagi muammolar o'rganiladi. Shuningdek, ekvivalentlikni saqlash, pragmatik ta'sirni yetkazish hamda auditoriyaga moslashtirish usullari misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari animatsion diskurs tarjimasida transformatsion yondashuv va madaniy adaptatsiyaning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: animatsion diskurs, yumor, tarjima transformatsiyasi, adaptatsiya, pragmatika, lingvokulturologiya, audiovisual tarjima, so'z o'yini.

Abstract. This article analyzes translation transformations and adaptation strategies employed in translating humorous units within animated discourse. The study examines challenges associated with translating wordplay, cultural references, irony, metaphor, and linguocultural elements commonly found in the language of animated films and cartoons. Furthermore, methods of preserving equivalence, conveying pragmatic impact, and adapting content to the target audience are illustrated through examples. The findings demonstrate the significance of transformational approaches and cultural adaptation in the translation of animated discourse.

Keywords: animated discourse, humor, translation transformation, adaptation, pragmatics, linguoculturology, audiovisual translation, wordplay.

Аннотация. В данной статье анализируются переводческие трансформации и стратегии адаптации, применяемые в процессе перевода юмористических единиц в анимационном дискурсе. Исследуются проблемы перевода языковой игры, культурных единиц, иронии, метафоры и лингвокультурологических элементов, встречающихся в языке анимационных фильмов и мультфильмов. Также на примерах рассматриваются способы сохранения эквивалентности, передачи прагматического воздействия и адаптации содержания к целевой аудитории. Результаты исследования показывают важность трансформационного подхода и культурной адаптации в переводе анимационного дискурса.

Ключевые слова: анимационный дискурс, юмор, переводческая трансформация, адаптация, прагматика, лингвокультурология, аудиовизуальный перевод, языковая игра.

Kirish. Globallashuv sharoitida audiovizual mahsulotlar, xususan animatsion filmlar turli xalqlar o'rtasidagi madaniy almashinuvning muhim vositasiga aylandi. Animatsion diskurs bolalar va kattalar auditoriyasiga birdek mo'ljallangan bo'lib, unda yumor kommunikativ ta'sirni

kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Biroq yumorni bir tildan boshqa tilga o'g'irish tarjimon uchun murakkab vazifalardan sanaladi.

Yumoristik birliklar ko'pincha til o'yini, fonetik o'xshashlik, madaniy kodlar, frazeologik birliklar yoki ijtimoiy konnotatsiyalar asosida shakllanadi. Shu sababli ularni oddiy leksik tarjima orqali uzatish yetarli natija bermaydi. Tarjimon turli transformatsion usullar va adaptatsiya strategiyalaridan foydalanishga majbur bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi animatsion diskursdagi yumoristik birliklarni tarjima qilishda qo'llaniladigan asosiy tarjima transformatsiyalari va adaptatsiya strategiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Yumoristik birliklar va animatsion diskurs xususiyatlari – animatsion diskurs multimodal xarakterga ega bo'lib, verbal va noverbal vositalar uyg'unligidan tashkil topadi. Yumor quyidagi vositalar orqali yuzaga chiqadi: so'z o'yinlari (pun), kinoya va sarkazm, metafora va allegoriya, frazeologik birliklar, madaniy referensiyalar, intertekstuallik va fonetik o'xshashliklar.

Animatsion filmlarda yumor ko'pincha bolalar uchun sodda kulgili elementlar va kattalar uchun yashirin madaniy yoki ijtimoiy mazmunlarni birlashtiradi. Bu esa tarjimada pragmatik ekvivalentlik masalasini dolzarb qiladi. Masalan, Original: "You're bacon me crazy!" Mazkur jumla ingliz tilidagi "You're driving me crazy" iborasining modifikatsiyasi bo'lib, "bacon" so'zi orqali yumor hosil qilingan. Uni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak, "Sen meni bekon qilib yuboryapsan." Degan ma'no anglatadi. Bunda yumor yo'qoladi. Biz uni adaptatsiyalangan variantda "Sen meni rosa jinni qilyapsan-ku!" deb ishlatamiz. Bu yerda semantik emas, pragmatik ekvivalentlik ustuvor hisoblanadi.

Tarjima transformatsiyalarining o'rni – original birliklarni maqsad til me'yorlari va kommunikativ talablariga mos ravishda o'zgartirish jarayonidir.

Animatsion diskurs tarjimasida quyidagi transformatsiyalar keng qo'llaniladi:

1. Leksik transformatsiya – birliklarni sinonim yoki kontekstual mos variantlar bilan almashtirish. Misol uchun, "Piece of cake" iborasi so'zma-so'z tarjimada "Bir bo'lak tort" ma'no anglatasa, transformatsiyalangan tarjimada "Juda oson ish" degan ma'noni anglatadi. Frazeologik moslik saqlanadi.

2. Grammatik transformatsiya – gap strukturasi maqsad til grammatik tizimiga moslashtirish usuli hisoblanadi. Bunga misol keltirsak, "He cracked me up." Birligini so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak "U meni kuldirib yubordi."

Grammatik qayta qurish natijasida tabiiylik ta'minlanadi.

3. Modulyatsiya ma'noni boshqa nuqtai nazardan ifodalash moslashtirish usuli hisoblanadi. Bunga misol keltiradigan bo'lsak, "Not bad." Iborasini tarjima qiladigan bo'lsak, "yaxshi ekan." deb tarjima qilinadi. Negativ konstruktsiya pozitiv shakl orqali berilgan.

4. Kompensatsiya – originaldagi yo'qolgan yumorni boshqa qismda qayta yaratish usuli hisoblanadi. Masalan, ingliz tilidagi fonetik hazil tarjimada saqlanmasa, tarjimon boshqa jumlada kulgili birlik yaratishi mumkin.

5. Transpozitsiya – sintaktik kategoriyalarni o'zgartirish usuli hisoblanadi. Masalan, "What a surprise!" birligi tarjimada "Qanday hayratlanarli!" ma'nosini bildiradi.

Adaptatsiya strategiyalarining ahamiyati – adaptatsiya madaniy va pragmatik moslashtirishni anglatadi. Audiovizual tarjimada adaptatsiya ayniqsa muhim.

Quyidagi strategiyalar keng uchraydi: madaniy adaptatsiya va madaniy realiyalar auditoriyaga tanish birliklar bilan almashtiriladi. Masalan, *"He acts like Santa Claus."* Birligi tarjimada *"U xuddi Qorbobo kabi tutadi o'zini."* Kabi ma;no anglatadi. Mahalliy auditoriyaga tushunarli obraz tanlanadi.

Lokalizatsiya – mahalliy kommunikativ muhitga moslashtirish usuli hisoblanadi. Masalan, inglizcha maktab tizimi yoki bayramlari mahalliy madaniy ekvivalentlar bilan ifodalanishi mumkin.

Pragmatik adaptatsiya – tomoshabinda originaldagi emotsional ta'sirni saqlash maqsad qilinadi. Masalan, *"You're nuts!"* iborasi tarjima qiinganda to'g'ridan-to'g'ri *"Sen yong'oqsan!"* ma'nosini anglatadi, Pragmatik adaptatsiya usuli orqali tarjima qilinganda *"Esing joyidami?"* yoki *"Jinnimisan?"* ma'nolarini anglatadi.

Animatsion tarjimada yumorni saqlash muammolari – tarjimon quyidagi muammolarga duch keladi: til o'yinlarining tarjima qilinmasligi, madaniy tafovutlar, audiovizual sinxronlash talabi, auditoriya yosh xususiyatlari va vaqt va subtitr hajmi cheklovlari. Masalan, animatsion filmlarda qisqa dialoglar talab qilinadi. Shu sababli tarjimon mazmun va yumor o'rtasida muvozanat topishi zarur.

Muhokama. Animatsion diskurs tarjimasida yumorni muvaffaqiyatli uzatish tarjimonning lingvistik kompetensiyasi bilan bir qatorda lingvokulturologik bilimlariga ham bog'liq. Tarjima transformatsiyalari ma'no uzatilishini ta'minlasa, adaptatsiya strategiyalari auditoriya uchun tabiiy va tushunarli kommunikativ natijani yaratadi. Yumor tarjimasida formal ekvivalentlik emas, funksional va pragmatik ekvivalentlik ustuvor ahamiyatga ega.

Xulosa. Animatsion diskursdagi yumoristik birliklarni tarjima qilish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Tarjimon original matnning lingvistik va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda transformatsion va adaptiv yondashuvlarni uyg'unlashtirishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

- a) leksik va grammatik transformatsiyalar yumor mazmunini saqlashda muhim;
- b) adaptatsiya strategiyalari pragmatik ta'sirni yetkazishda samarali;
- c) lingvokulturologik omillar yumor tarjimasining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komissarov V.N. *Theory of Translation (Linguistic Aspects)*. Moscow, 1990.
2. Newmark P. *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall, 1988.
3. Vinay J.P., Darbelnet J. *Comparative Stylistics of French and English*. Amsterdam, 1995.
4. Chiaro D. *Translation, Humour and Literature*. London, 2010.
5. Delabastita D. *Wordplay and Translation*. Manchester, 1996.
6. Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge, 2018.
7. Zabalbeascoa P. "Translating Humour in Audiovisual Texts." *The Translator*, 1996.